© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOIY DAVLATCHILIK: TUSHUNCHA, TAMOYILLAR VA 2026-YILDAGI ISLOHOTLAR

Quramboyev Alisher Maxsudovich
Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail:quramboyevalisher@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.22706738

Annotatsiya:
Davlatimiz tabiati tobora ijtimoiy mazmun kasb etib, o'z faoliyat mazmuniga ko'ra demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sari odimlab bormoqda. Maqolada ushbu fikrlarning dalili sifatida faktlar keltirilib, ijtimoiy davlat konsepsiyasining mazmun-mohiyati va uning nazariy asoslari ochib beriladi. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ijtimoiy sohada amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, xususan kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, 2026-yilga kelib mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida erishilgan yangi natijalar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati, shuningdek mahalla boshqaruvini isloh qilishga qaratilgan so'nggi farmonlar misolida davlatning ijtimoiy funksiyasi qanday amaliy tus olayotgani yoritilgan. Maqolada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning insonparvarlik va ijtimoiy adolat ustuvorligiga intilishga qaratilgan oqilona siyosatiga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ijtimoiy davlat, inson qadri, kam ta'minlangan oila, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalla instituti.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi 20-asr boshlarida sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ijtimoiy tengsizlik tufayli yuzaga kelgan muammolarga javob sifatida paydo bo'ldi. "Ijtimoiy davlat tushunchasi va g'oyasi ilk bor 1850-yilda nemis sotsiologi va faylasuf Lorens Fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. Unga ko'ra, ijtimoiy davlat davlatning ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish uchun javobgarligi bilan tavsiflanadi. U davlat boylik va imkoniyatlarni yanada adolatli taqsimlash uchun iqtisodiy va ijtimoiy ishlarga aralashishi kerak, deb hisoblagan. Shteynning ijtimoiy davlat konsepsiyasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot huquqi kabi ijtimoiy huquqlarning muhimligi ta'kidlangan. U adolatli va barkamol jamiyatni ta'minlash uchun bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanishi lozimligini ta'kidladi.

Avvalo "**ijtimoiy"** so'zining ma'nosini aniqlashtirib olaylik, **"Ijtimoiy"** so'zi arabcha **"jamoa", "jamiyatga oid"**, degan ma'nolami anglatadi.[1] "Ijtimoiy" va "ijtimoiylik" tushunchalari jamiyat yoki guruh ichidagi shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni anglatadi. U shaxslarning bir-biri bilan bog'lanish, muloqot qilish va hamkorlik qilish usullarini, shuningdek, ushbu o'zaro munosabatlarni shakllantiruvchi normalar, qadriyatlar va institutlarni qamrab oladi.

Ijtimoiylik inson tabiatining asosiy jihati bo'lib, turli jamiyat va madaniyatlarda turli shakllarda kuzatiladi. Bu inson rivojlanishining asosiy tarkibiy qismidir, chunki odamlar yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarni boshqarishni o'rganadilar. Ijtimoiylikni tushunish inson ehtiyojlari, motivlari, xatti-harakatlari, jamiyat va jamoalar faoliyatini o'rganish uchun juda muhimdir. Bu shaxslar munosabatlarni qanday shakllantirishi va saqlab turishi, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar qanday

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2013. 12-bet

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

o'rnatilishi va amalga oshirilishi, jamiyatlarning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishi va o'zgarishini tushuntirishga yordam beradi. Huquqshunos Odilqoriyevning bu haqidagi fikri e'tiborga loyiq: "Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya'ni ko'pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o'zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko'ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma'noda ijtimoiydir"[2]

Ijtimoiy davlat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda ijtimoiy davlat deganda, davlatning har bir fuqarosi munosib turmush sifatiga ega bo'lishi, ushbu davlatdagi moddiy boyliklar adolatli taqsimlanganligi tushuniladi.[3] Ijtimoiy davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli va davlatchilik rivojining maxsus bosqichidir. Ijtimoiy davlat bu fuqarolarning ijtimoiy himoyalanishi va farovonligi haqida g'amxo'rlik qiluvchi davlatdir.

Ijtimoiy davlat ijtimoiy yo'nalgan siyosat olib borishi, ijtimoiy tengsizlikni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida balansga keltirishi, ijtimoiy rivojlanishda barqarorlikni saqlay olishi lozim. Ijtimoiy davlat bu paternalistik davlat degani emas, ya'ni davlat hamma narsani muhayyo etmaydi. Insonlar ham boqimanda bo'lmasdan imkoniyati yetarli bo'lsa harakat qilishi lozim. Ular huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham his etib yashashlari shart. Lekin, inson ehtiyojlarini qondirib, yaxshi hayot kechirishi uchun ishli va daromadli bo'lishi kerak. Davlatning esa ijtimoiylik tabiatini ko'rsatadigan narsa bandlikni ta'minlash, ishsizlikni oldini olish, ish o'rinlari yaratishdir. Davlat fuqarolarni tizimli, tartibli va doimiy daromadli bo'lishini ta'minlashi kerak. Ishlashni xohlaydigan, bilagida kuchi bor insonlarni mablag'ga ega bo'lishiga ko'maklashish, mehnat huquqini kafolatlash va shu orqali hayot mashaqqatlarini yumshatish, teng imkoniyatlar yaratishi lozim. Ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlat ideal davlat sifatida, ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasida farq unchalik sezilmaydi. Yangilangan konstitutsiyamizda ham bu narsalar kafolatlandi. Moddalar davlatimizni ijtimoiy yo'naltirilgan, insonparvar-ijtimoiy tabiatini ko'rsatyapti. Konstitutsiyaning muqaddimasida ham davlatning asosiy maqsadi-fuqarolarimizming munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, belgilangan. Davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarga xizmat qiladi, ular oldida mas'uldir, ya'ni davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning bu borada ijtimoiy majburiyatlari mavjud.[4] Zamonaviy ijtimoiy davlatning qolipi yo'q, albatta. Chunki, jahondagi davlatlarning har biri o'ziga xos yo'li, xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy davlatning funksiyalari juda ko'p. Quyidagilarni eng muhimlari deb hisoblaymiz: oilani himoyalash, tirikchilik uchun eng kam me'yorni belgilash, ijtimoiy ta'minot tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim tizimi va tibbiy xizmatni rivojlantirish. **Fikrimizcha, ijtimoiy davlatning eng muhim belgisi ijtimoiy himoya hisoblanadi.** Ijtimoiy himoya ham ijtimoiy, ham falsafiy, ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. "Ijtimoiy himoya" atamasi keng ma'noda jamiyat hayotining barcha jabhalarida shaxsning huquqlari, iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlari ta'minlanadigan davlat tomonidan kafolatlangan vositalar majmuini anglatadi. Shuningdek, ushbu mablag'lar odamlar uchun xavfsiz yashash sharoitlarini ta'minlaydi, jinoiy hujumlardan himoya qiladi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlarda yordam beradi. Tor ma'noda "ijtimoiy himoya" atamasi fuqarolarning kafolatlari va huquqlarini (iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy himoya) himoya qilish bo'yicha harakatlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy himoyaning ajralmas qismi bolali oilalarni ijtimoiy

[2] Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. Toshkent. Yuridik adabiyotlar Publish. 2022.B.79.

[3] Qoraxodjayeva. O. TDYU dots. "Ijtimoiy davlat sari qadam". "Inson va qonun" gazetasi № 25 son 5-iyul 2022-yil.

[4] Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlarining transformatsiyasi // Zenodo, 25.01.2026. – URL: https://zenodo.org/records/18628104

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

himoya qilishdir."[5] Demak, ijtimoiy himoya jamiyatning barcha sohalarda sog'liqni saqlash, ishsizlik nafaqalari, pensiyalar va nogironlarni qo'llab-quvvatlash kabi turli xil ijtimoiy ta'minot dasturlarini taklif qilish orqali fuqarolar uchun xavfsizlik tarmog'ini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy himoya – bu odamalarni nafaqat moddiy jihatdan qo'llash, balki uning zamirida insonparvarlik, adolat g'oyalari mujassam. Olimlarning fikricha, ijtimoiy himoya konsepsiyasi birinchi marta 1935-yil AQSHning "Ijtimoiy himoya xavfsizlik bo'yicha qonun"ida aks etgan va qariyalar, mehnatga layoqatsizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi borasida dasturlar ishlab chiqilishi haqida takliflar berilgan bo'lsada, lekin aholini ijtimoiy himoya qilish tushunchasining mohiyati va bu muammoni yechish bo'yicha taklif va tavsiyalar haligacha ishlab chiqilmagan edi. Keyinroq esa "ijtimoiy himoya" tushunchasining mohiyati XMT konvensiyalarida takomillashtirilgan va uning mohiyatini tushintirishga harakat qilingan.

Bizningcha, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ko'plab omillarga bog'liq:

- iqtisodiy baquvvatlik (davlatda qachonki iqtisodiy o'sish barqaror bo'lsa kambag'allikni qisqartirishda bazadir);
- fuqarolik jamiyati;
- inson kapitalini rivojlantirish (ularni ta'limi, sog'ligini muhofazalash, uy-joy bilan ta'minlash, qulay ekologik muhit yaratish)
- huquq va qonun ustuvorligi;
- demokratik daraja aholi manfaatlariga mosligi;
- davlat ijtimoiy siyosat darajasi;
- bozor iqtisodiyoti;
- tadbirkorlikni rivojlantirish va davlatni tadbirkorlar bilan ishlashi;
- ijtimoiy ta'minot tizimi va boshqalar.

Aholining ijtimoiy ta'minoti ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'idir. Odatda, rivojlangan demokratik davlatlarda ijtimoiy himoya qilish mas'uliyatini davlat o'z bo'yniga oladi. Ijtimoiy himoya – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikning garovi hisoblanadi. Jumladan, 2022-yil 25-iyulda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi (PF-175-son Farmon) 2030-yilgacha bo'lgan davrda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va kompleks chora-tadbirlarini belgilab berdi.[6]

Taraqqiyotimizning oxirgi o'n yilligida har bir kelayotgan yilni ma'lum bir nom bilan nomlash odat tusiga kirdi. Bu nomlarning deyarli barchasi aholini ijtimoiy himoyalashga taaluqli bo'lib, shu asosda yaxlit ijtimoiy himoya siyosati har yili aholining ma'lum bir tabaqasiga qaratilgan holda amalga oshirilib kelinyapti. Bu nomlarga mos keluvchi davlat dasturlari tayyorlanib, bu davlat dasturlari realizatsiyasi uchun milliardlab so'm davlat va nodavlat mablag'lar yo'naltirilyapti.

"Ijtimoiy himoya" faqat moddiy ko'makdan iborat emas, uni kengroq tahlil etib, eng avvalo, **ma'naviy omilning** o'rnini unutmasligimiz lozim. Ilmiy – falsafiy adabiyotlarda "ma'naviy omil" tushunchasiga yagona ta'rif berilmagan bo'lsa-da, tadqiqotchilar "Ma'naviy omil" va "shaxs" o'zaro bir – biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar[7] ekanligini ta'kidlaydi. Fikrimizcha, ma'naviy omil tushunchasi "Inson qadri" tushunchasi bilan ham bog'liq. Inson qadrini ta'minlash esa ijtimoiy davlat

[5] М.В Торопыгина. Институт семьи в современной России: социально-философский анализ.) кандидат философских наук дисс. Автореф. – Москва, 2011, С. 160.

[6] Ijtimoiy davlat konsepsiyasining O'zbekiston sharoitida shakllanish jarayoni // Oriental Journal of History, Politics and Law, 2025. – Pages: 1081-1087. – URL: https://supportscience.uz/index.php/ojhpl/article/download/3487/3327/11204

[7] Tulenova. G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy falsafiy tahlil). Dis. Falsafa fanlari dokt. Ijtimoiy falsafa. 2006. B. 74-161.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

orqali amalga oshadi. Shuningdek, ma'naviy omil - insonni mehnatga, harakat qilishga, azm-u shijoat qilib o'z hayotini jilovini qo'liga olishga undovchi axloqiy kuch va turtki hamdir.

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini uzluksiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb, daromadlari jihatidan keskin tafovutlarga barham berish, insonga munosib hayot darajasini va inson kapitalini rivojlantirishdan iborat. Maqsad: inson taraqqiyoti, inson qadrini ta'minlash.

"Inson taraqqiyoti bu kishilarga sog'lom va bunyokor hayotni ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitni yaratish va ularga hayotning turli sohalarida keng tanlov imkoniyatini yaratishdir"[8] **Fikrimizcha**, inson taraqqiyoti deganda uning hayot sifatini yaxshilashdan tashqari, insonning ma'naviy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ham e'tiborga olish kerakligini unutmasligimiz kerak. **Davlat rahbarimiz** esa inson qadri tushunchasiga quyidagicha keng ma'noda tavsif berib o'tdilar: "Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz"[9].

Ijtimoiylikning asosiy sharti – insonni oliy qadriyat darajasiga olib chiqishdir. Ijtimoiy davlatning mohiyati esa, uning oqilona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil amalga oshirishda o'z aksini topadi.

Harakatlar strategiyasida va uning mantiqiy davomi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham belgilangan vazifalar bajarilib borilyapti va ijtimoiy sohada butkul yangi tizim, yangi model yaratilyapti. "Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir"[10] deya davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonni qiyofasini tasvirlab berdilar.

Hozirda O'zbekiston ijtimoiy va adolatli jamiyat sari bormoqda. Ijtimoiy davlat tamoyili xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi konstitutsiyada ham qoida sifati muhrlandi. Ijtimoiy adolat – bu qarashlar, jinsi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – avvalo, muhtoj, ehtiyojmand, nochor oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Bu – avvalo, ijtimoiy insonparvarlikdir. Birinchi prezidentimiz oila haqida quyidagi fikrlari e'tiborli: "Oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qat'iy tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas."[11] Ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biri-bu kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishdir.

Ijtimoiy davlatchilik borasidagi islohotlar 2026-yilda ham izchil davom etmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yil boshida 8,9 foizni tashkil etgan kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushirilib, 8,5 milliondan ziyod kishi kambag'allik chegarasidan chiqarildi, joriy yilda yana 181 ming

[8] Shirinov.A "Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.Fan.Dokt. dis.avtoref. Buxoro davlat universiteti. 2023.-14 b.

[9] Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokrtatik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz //https://president.uz/lists/view/4743

[10] Shavkat Mirziyoyev.Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. Bet. 199.

[11]Karimov.I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. "O'zbekiston". 1993. 47-bet

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

oilani kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirilgan.[12] Shuningdek, mahalla institutining jamiyatdagi o‘rnini kuchaytirish maqsadida 2026-yil 24-iyunda “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-116-son Farmon qabul qilinib, unga ko‘ra mahalladagi xotin-qizlar faoliga oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Ayollar daftari” tizimini yuritish va zo‘ravonlik hamda tazyiqning oldini olish kabi aniq vazifalar yuklatildi, “Raqamli mahalla” platformasi joriy etildi.[13] Ijtimoiy yordamning manzilliligini yanada oshirish maqsadida 2026-yil 1-fevraldan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reestri” va kambag‘al oilalar reestri joriy etilib, aholiga ko‘rsatiladigan barcha ijtimoiy xizmatlar yagona axborot tizimi orqali nazoratga olindi.[14] 2026-yil 3-avgustda esa davlatimiz rahbari huzurida ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni to‘liq qamrab olish, boshpanasiz shaxslarni ijtimoiy tiklanish markazlari orqali qo‘llab-quvvatlash hamda odam savdosidan jabrlangan ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.[15] Bu chora-tadbirlarning barchasi ijtimoiy davlatchilik tamoyilining mahalla darajasigacha, ya’ni jamiyatning eng kichik bo‘g‘iniga qadar chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi.

Xullas, ijtimoiy himoyalash, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni qo’llab-quvvatlash, yashash uchun zarur resurslarga ega bo’lish (suv, gaz, elektr, transport), doimiy daromadga ega bo’lish, aholi bandligi, majburiy mehnatni taqiqlash, ta’lim, sog’liqni saqlash, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, muhtojlarga uy-joy, yashash uchun muhim bo’lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo’yilishi, oilalarning munosib hayot kechirishi uchun yetarlicha ish haqi, xavfsiz mehnat sharoiti, kambag’allikni qisqartirish masalalari bilan shug’ullanish ijtimoiy davlatga xosdir. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy davlat hech kimni e’tibordan chetga qoldirmaydi. Har bir insonning muammolarini hal etishga yordam beradi. O’zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat deb atashga to’la asos mavjud. Bu qoida yangi konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo’yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B.12.
2. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – B.79.
3. Qoraxodjayeva O. Ijtimoiy davlat sari qadam // “Inson va qonun” gazetasi, №25, 5-iyul 2022-yil.
4. Торопыгина М.В. Институт семьи в современной России: социально-философский анализ: дисс. канд. филос. наук: автореф. – Москва, 2011. – С.160.
5. Tulenova G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari doktori dis. – 2006. – B.74-161.
6. Shirinov A. Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): fals. fan. dokt. dis. avtoref. – Buxoro davlat universiteti, 2023. – B.14.

[12] Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 2026. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/8834

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-iyundagi “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-116-son Farmoni // lex.uz. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8286512

[14] 2026-yil 1-fevraldan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” va kambag‘al oilalar reestri joriy etildi // UzReport.tv, 2026. – URL: https://www.facebook.com/uzreport.tv/posts/1433022321722289/

[15] Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi // Prezident.uz, 03.08.2026. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/9483

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

7. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // Prezident.uz. – URL: https://president.uz/lists/view/4743
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2021. – B.231.
9. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B.199.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1993. – B.47.
11. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi PF-82-son Farmoni.
12. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 2026. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/8834
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-iyundagi “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-116-son Farmoni // lex.uz. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8286512
14. Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi // Prezident.uz, 03.08.2026. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/9483
15. Yangi O‘zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlarining transformatsiyasi // Zenodo, 25.01.2026. – URL: https://zenodo.org/records/18628104
16. Ijtimoiy davlat konsepsiyasining O‘zbekiston sharoitida shakllanish jarayoni // Oriental Journal of History, Politics and Law, 2025. – Pages: 1081-1087. – URL: https://supportscience.uz/index.php/ojhpl/article/download/3487/3327/11204
17. 2026-yil 1-fevraldan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” va kambag‘al oilalar reestri joriy etildi // UzReport.tv, 2026. – URL: https://www.facebook.com/uzreport.tv/posts/1433022321722289/